



VOKAL MASHG‘ULOTLARIDA TALABA BILAN ISHLASHISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Kalliev Abatbay

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali professori,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi san’at arbobi

Annotatsiya. Mazkur maqolada vokal mashg‘ulotlarida talaba bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Vokal san’atining mohiyatiga ham to‘xtalib, mashg‘ulotlarda har bir talabaga individual yondashish, repertuar tanlashdagi immanent jarayonlar ham qisman o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: vokal mashg‘ulotlari, individual yondashuv, ovoz texnikasi, repertuar, pedagog mahorati, ijodiy rivojlanish, talaba bilan ishlash.

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С УЧАЩИМИСЯМИ В ВОКАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ

Аннотация. В данной статье анализируются специфические аспекты работы с учащимися в вокальной подготовке. Также затрагивается сущность вокального искусства, а также частично изучается индивидуальный подход к каждому ученику в обучении, а также имманентные процессы в выборе репертуара.

Ключевые слова: вокальная подготовка, индивидуальный подход, техника голоса, репертуар, педагогическое мастерство, творческое развитие, работа с учащимися.

SPECIFIC FEATURES OF WORKING WITH STUDENTS IN VOCAL TRAINING

Annotation. This article analyzes the specific aspects of working with students in vocal training. The essence of vocal art is also touched upon, and the individual approach to each student in training, as well as the immanent processes in choosing a repertoire, are also partially studied.

Keywords: vocal training, individual approach, voice technique, repertoire, pedagogical skills, creative development, work with students.





Vokal – ijodkor shaxsiyatini shakllantirish jarayonida muhim fanlardan biridir, chunki kuylashga o'rgatish insonning ijodiy rivojlanishiga, umumiy madaniyat darajasining oshishiga xizmat qiladi. Tovush – inson tabiatan ega bo'lgan noyob ne'matdir. Aynan tovush orqali biz atrofimizdagi olam bilan muloqot qilamiz, voqelikdagi turli hodisalarga bo'lgan munosabatimizni ifoda etamiz. Kuylash apparati – o'zida rang-baranglik va nozik ohanglarning betakror boyligini mujassam etgan g'ayrioddiy bir asbobdir. Shu bois undan to'g'ri foydalanishni bilish – insonning hissiy dunyosi va ijodiy o'zini ifodalash qobiliyatini shakllantirishda muhim ko'nikma hisoblanadi. Musiqa inson ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi, quvonchlanishga va boshqalarning holatiga hamdard bo'lishga o'rgatadi. Vokal mashg'ulotlari natijasida nafas olish, nutq, eshitish, musiqiy idrok va ritm tuyg'usi rivojlanadi. Tovush hosil qilish uslubiga ko'ra besh turdagi vokal ajratiladi: akademik, xalq, estrada, jaz va rok vokali. Quyida ushbu turlarining har biriga xos asosiy belgilarga to'xtalamiz.

Akademik vokal – bu vokal san'atining klassik yo'nalishidir. Ushbu uslubda kuylovchilar qat'iy vokal pozitsiyaga rioya qiladilar, bu esa ularga mikrofonisiz, kuchli va baland kuylash imkonini beradi. Bu klassik vokal an'anasi bo'lib, kuchli ovoz, keng diapazon va to'g'ri qo'yilgan nafas kabi tabiiy vokal salohiyatning mavjud bo'lishini talab qiladi. Ovozni chiqarishda u toza, cho'zilgan, hajmli bo'lishi, sun'iy kuchaytirish (forsaj) va xirillashdan xoli bo'lishi kerak. Akademik vokalda, odatda, opera, myuzikl, romanslar ijro etiladi, ba'zan esa estrada qo'shiqlari ham kuylanadi.

Xalq vokali – bu muayyan xalqning vokal an'alariga asoslangan ijro uslubidir. Bu kuylash uslubiga emotsional ifodaning kuchliligi va "ochiq" tovush orqali kuylash xos. Odatda, xalq vokalida ko'krak registri, to'g'ri va tekis ovoz (yassi tembr) ishlatiladi. Shuningdek, tovush bog'lamalarida (ligamentlarda) kuylash, maxsus vokal texnikalar (masalan, tyolyancha kuylash) keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy xonandalar xalq vokal elementlarini estrada kuylashiga moslashtirmoqda (masalan, Pelageya, Shaman va boshqalar).

Estrada vokali – bu turli vokal uslublarining sintezi bo'lib, ijrochiga har xil ovozda kuylash imkonini beradi. Ba'zilar bu uslubni soddalashtirilgan deb hisoblasalar-da, amalda estrada vokali murakkab vokal texnikasini talab qiladi. U xalq, jaz, klassik va rok vokal elementlarini birlashtirgan bo'lib, xonandadan quyidagi maxsus usullarni qo'llashni talab etadi: xirillash, shivirlash, melizmalar, slayding (pod'yom), chuqurlashtirish (glubina).





Estrada vokali ikki yo‘nalishni birlashtiradi: akademik vokaldagidek texnik mukammallik va jazdagi kabi erkinlik. Estrada ijrochisining vazifasi – mavjud uslublar asosida o‘ziga xos, original vokal uslubini shakllantirishdir. Jaz vokali afroamerikaliklarning xalq kuylari va blyuz an‘analaridan kelib chiqqan. Bu uslubda vokal ijrosi ijrochining shaxsiy ovoz xususiyatlariga bog‘liq. Jaz vokalining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: maxsus ijro uslubi, noyob tembrlar, tovushning o‘ziga xos tonallik sifati. Jaz vokalining ajralmas qismi — improvizatsiyadir. Bundan tashqari, quyidagi texnikalar ham keng qo‘llaniladi: shaunting (baqiriq), dirty tones (ifloslangan tembr), bending (tovushni ohang bilan bukish), glissando, vibratsiya, falkset, pichirlash yoki ohangni keskin kuchaytirish. Jaz vokaliga quyidagilar xos:

- a) real vaqt rejimida melodiyaning improvizatsiya qilish – bu jaz vokalining ajralmas qismidir;
- b) ritm va garmoniya tuyg‘usining yuqori darajasi – ijrochi musiqa ichida o‘zini “baliq suvda”dek his qilishi kerak;
- v) ovoz mustahkam nafas tayanchi asosida qurilishi;
- g) musiqa asboblari tembriga taqlid qilish qobiliyati.

Rok vokal – bu rok guruhlaridagi vokal partiyalarini ijro etish uslubidir. Unda emotsional yetkazuvchanlik va matn mazmunining ifodasi muhim ahamiyatga ega. Rok vokalining asosiy xususiyatlaridan biri bu tovushning turli darajada “parchalanishi” bo‘lib, quyidagicha texnikalar orqali ifodalanadi: drajv, skrim, xirillik, xirillash, g‘uvillash, grouling. Rok vokalda tovushning tozaligi, tembr yoki intonatsiyadan ko‘ra, qo‘pol, agressiv, kuchli va tashqi jihatdan beparvo ijro yuqori baholanadi. Qancha ko‘p ekspressiya bo‘lsa – ijro shuncha kuchli hisoblanadi. U uchun boshqa barcha narsalardan voz kechish mumkin. Vokal ijrosi turli shakllarda bo‘lishi mumkin: yakka, ansambl va xor. Yakka kuylash – bu vokal partiyasini faqat bitta ijrochi tomonidan bajarishni nazarda tutadi. Ansambl (guruh) kuylash – bu kichik vokal jamoalarining birgalikda kuylashiga asoslangan bo‘lib, u 2 dan 10 gacha ijrochidan iborat bo‘ladi. Ijrochilar tovushlarga (bas, bariton, tenor, mezzo-soprano, soprano) ajratiladi. Har bir ansambl ishtirokchisining o‘z partiyasi mavjud, shuningdek, solistning kuylashini qo‘llab-quvvatlaydigan partiyalar ham mavjud. Xor kuylash – bu vokal jamoasining birgalikda kuylashidir. Xorlar quyidagicha tasniflanadi:

Kichik xor (16 dan 24 gacha ijrochi),





Kamarli xor (24 dan 36 gacha ijrochi),

O'rta xor (40 dan 60 gacha ijrochi),

Katta xor (80 dan 100 va undan ko'p ijrochi).

Xor jamoalari, ansambl kabi, ko'p ovozli asarlarni ijro etishi mumkin[1].

Vokal musiqa san'ati – bu musiqiy ijro san'atining umumiy estetik xususiyatlariga, shuningdek, boshqa musiqiy ijrochilik san'atidan farq qiluvchi noyob estetik tabiatga ega bo'lgan musiqiy ijrochilik san'atlaridan biridir. Y. Dugan aytganidek, “musiqa san'ati yoki estetika shakllaridan biri sifatida vokal musiqasi printsiplial jihatdan instrumental musiqa san'atidan farq qiladi. Badiiy ijod jarayoni va badiiy ifodasi, yaratilish tarkibi va badiiy ta'siri, badiiy mazmuni va shakli, turi va uslubi yoki estetik ta'siri va funksiyasidan qat'i nazar, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari mavjud”[2] vokal musiqa san'ati nazariyasini o'rganish “musiqa san'ati shaklining o'ziga xosligini ochib berish, shu bilan vokal musiqa san'atining mohiyati va qonunini har tomonlama o'zlashtirishdan iborat” [3].

Xonandani tarbiyalash jarayonida o'qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o'rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishga nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta'lim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To'g'ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq – bu bilim olishning asosiy vositasi. Ularni qo'llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo'qotish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari – mashqdan badiiy asarlarga o'tish uchun foydali manba hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal-texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish – o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo'llay bilish – pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarning muvaffaqiyatli ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishlash uslubini keng ko'lamli va turli-tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak. Tovush sifatini ko'zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali qurollar ko'ra oladigan va sodda bo'lgani uchun ham kerakli ko'nikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o'qituvchining





o‘zi ham yaxshi ovozga ega bo‘lishi lozim, o‘quvchi esa-taqld qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o‘rganishda majburiy hisoblanmaydi[4]. Ovoz shaxsning nozik ifoda vositasi bo‘lgani uchun talaba bilan ishlashda ishonchli va ijobiy muhit yaratish muhim. Tanqidiy yondashuv ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi, talaba o‘zini erkin va ishonchli his qilishi lozim. Talabaning vokal darajasi, yoshiga mos, texnik va ifodaviy jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladigan repertuar tanlanishi kerak. Repertuar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Talabalarning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo‘lganligini hisobga olgan holda, dasturning repertuarlar ro‘yxatiga murakkabligi turlicha bo‘lgan asarlar kiritiladi. Lekin barcha kurslarda vokaliz berib borish zarur, chunki ijrochining ovozi sayqallanishiga, texnik-ijrochilik mahorati olishiga yordam beradi. Ro‘yxatga kiritilgan asarlarini talabaning ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozitsiya qilib berish tavsiya etiladi[5]. Vokal mashg‘ulotlarining asosi puxta o‘ylangan o‘quv materialini tanlash, talabalarning musiqiy-ijrochilik iqtidorini har tomonlama, muvaffaqiyatli rivojlantirishdan iborat. Talabalarning o‘zlashtirishi ko‘p jihatdan tuzilgan shaxsiy reja va to‘g‘ri tanlangan mashqlarga bog‘liq. Vokal ko‘nikmalarini rivojlantirish asta-sekin, maqsadli yo‘nalishda, butun o‘quv yili davomida, har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kechadi. Talabalar bilan ishlash jarayonida ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish lozim. Vokal ko‘nikmalar – bu xonandalik nafasi, artikulyatsiya, musiqani badiiy idrok etish, she‘r matniga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, musiqiy eshitish qobiliyati (slux), xotira, metroritm hissi, asarning badiiy saviyasiga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantirish v.h.k. Pedagog o‘z shogirdi bilan vokal-ijrochilik mahoratining turli qirralarini rivojlantiruvchi repertuarni tanlab, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петухова Н. В., Ефремова И. В. Вокал. Минск, Белорусский государственный университет культуры и искусств, 2022. 60 ст.
2. Yu Dugang: Vocal Music Art Aesthetics, Higher Education Press, May 1993, pp. 4.
3. Yang Yihe: Principle and Application of Music Performance Art, Anhui Literature and Art Press, October 2002, pp. 34.
4. Qahharov N. Vokallasoslari – Toshkent.:Iqtisod-moliya, 2008. 314 b.
5. Haydarov A. Vokal. – Qo‘qon.: O‘zDSMI Farg‘ona mintaqaviy filiali. 2019.

